XALQ DEPUTATLARI MARHAMAT TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 13 - mart VI-47-22-1-24-K/23 Marhamat tumani hokimligi

Marhamat tumani mahalliy budjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasiga asosan tuman hokimligining tuman mahalliy budjeti daromadlar rejasining orttirib bajarilishi hisobiga shakllangan mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Marhamat tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligining tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini ilovaga muvofiq yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Abdurazzaqov), tuman moliya bo‘limi mudiri (M.Maxmudov) bilan birgalikda:

- mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimi farmoyishlari loyihalarini tayyorlanishi;

- O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlarni kiritilishi;

- ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi

yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

3. Tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (N.Sharipov) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yhatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Ilovaga muvofiq mutasaddi tashkilot rahbarlari ajratilgan mablag‘larni maqsadli va samarali ishlatilishini ta’minlasinlar.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Abdurazzaqov zimmalariga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Туман ҳокими **Б. Юлдашев**

Xalq deputatlari Marhamat tuman
Kengashining
2023 yil 13 martdagi
VI-47-22-1-24-K/23-son qaroriga
1-ilova

Marhamat tumani mahalliy budjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish

T A Q S I M O T I

Ming so‘mda

№	Sohalar nomi	Muassasalar nomi	Ish turi	Summasi
1	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Temir daftariga (15%)	232717,0
2	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Ayollar daftariga (15%)	232717,0
3	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Yoshlar daftariga (15%)	232717,0
4	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Tashabbusli budjet jamg‘armasiga (30%)	465434,0
5	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Sanoat zonalarining yerlarini ekin yer toifasidan chiqarish uchun	11986,0
6	Iqtisodiyot	Obodonlashtirish boshqarmasi	Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish jamg‘armasiga	31029,0
7	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Tumanda ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirishda yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash	301358,0
8	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Matbuot kotibi xizmati xamda xalqparvar xodimlarining ish xaqi va ajratmasi	33889,0
9	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Boshqa xarjatlarga (Sud qaroriga asosan)	9600,0
Jami :		**X**	**X**	**1551447.0**